



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

$$\left(\frac{T_1}{T_2}\right)^2 = \left(\frac{a_1}{a_2}\right)^3$$



TADQIQOTLAR



ILM-FAN



TEKNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2026



Google Scholar



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI TO'PLAMI

3-JILD 7-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026



TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Janabergenova Aysuliw Jaksilikovna

Nukus davlat pedagogika instituti Matematika kafedrası v.v.b professori
Pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur tezisdá oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishning pedagogik mohiyati, nazariy-metodik asoslari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Mustaqil ta'lim, mustaqil ish va mustaqil o'quv faoliyati tushunchalarining mazmuniy farqlari yoritilib, talabanning o'zini o'zi boshqarishi, refleksiya, akademik mas'uliyati hamda raqamli ta'lim muhitidagi subyektlik darajasi asosiy mezon sifatida asoslanadi. Shuningdek, raqamli muhitda mustaqil ta'limni pedagogik boshqarishning mazmuni, funksiyalari va rivojlanish tendensiyalari aniqlanib, mustaqil ta'limni rejalashtirish, individuallashtirish, monitoring qilish, baholash, tezkor qayta aloqa va pedagogik korreksiya yagona raqamli muhitda integratsiyalash zarurati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, mustaqil ish, mustaqil o'quv faoliyati, o'zini o'zi boshqarish, refleksiya, kredit-modul tizimi, raqamli ta'lim muhiti, pedagogik boshqaruv, individuallashtirish, adaptiv ta'lim, monitoring, qayta aloqa.

XXI asrda bilimlarning jadal yangilanishi, kasbiy faoliyat mazmunining murakkablashuvi va raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga keng kirib borishi oliy ta'lim natijalariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirmoqda. Zamonaviy oliy ta'limning asosiy vazifasi talabaga tayyor bilimlar majmuini yetkazish bilangina cheklanmay, unda axborotni mustaqil izlash, tanqidiy tahlil qilish, olingan bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llash, o'z faoliyatini rejalashtirish, monitoring qilish, baholash va refleksiv takomillashtirish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat bo'lmoqda.

Mazkur jarayonda mustaqil ta'lim oliy ta'limning muhim tarkibiy komponentiga aylanmoqda. Ayniqsa, kredit-modul tizimining joriy etilishi mustaqil ta'limning pedagogik ahamiyatini yanada oshirdi. Kredit talabanning faqat auditoriyada o'tkazgan vaqtini emas, balki belgilangan ta'lim natijasiga erishish uchun sarflagan umumiy o'quv mehnatini ifodalaydi. Shu sababli mustaqil ta'limni oddiy uy vazifalari yoki o'qituvchining bevosita ishtirokisiz bajariladigan topshiriqlar yig'indisi sifatida talqin qilish yetarli emas.

O'zbekiston Respublikasida ham talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish uchun zarur normativ-huquqiy asoslar yaratilgan. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, "Raqamli O'zbekiston – 2030" hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyalarida



ta'limning individuallashtirilishi, kredit-modul tizimini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish va uzluksiz ta'limni ta'minlash ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Mazkur vazifalar mustaqil ta'lim hajmini oshirish bilangina emas, uning didaktik sifatini, boshqariluvchanligini va natijadorligini ta'minlaydigan pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish bilan ham bevosita bog'liq. [1–4]

Mustaqil ta'limning nazariy-metodik asoslari respublikamiz olimlari D.E.Axmedova, X. Xolmuratovich, S.B. Ibragimova, N.Z. Imamova, D.B.Yaqubova, D.A. Xikmatullayeva, K.S. Raxmonberdiyeva, Sh.E.Eshonqulova, N.I. Bayto'rayeva, Sh.F. To'rayev va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda mustaqil ta'limning pedagogik mohiyati, kredit-modul tizimidagi o'рни, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, o'quv-bilish va ijodiy faoliyatni faollashtirish hamda elektron ta'lim vositalaridan foydalanish masalalari yoritilgan.

MDH pedagogik maktabida B.P. Yesipov, P.I. Pidkasistiy, I.A. Zimnyaya, A.N. Leontyev, A.V. Xutorskoy kabi olimlarning ilmiy qarashlari mustaqil ta'limning nazariy asoslarini shakllantirishga xizmat qilgan. Mazkur yondashuvlarning qiyosiy tahlili mustaqil ishni ta'limni tashkil etish shakli, bilish faoliyatini faollashtiruvchi vosita hamda talabaning motivatsion, operatsional va refleksiv faoliyatini birlashtiruvchi pedagogik mexanizm sifatida ko'rib chiqish mumkinligini ko'rsatadi. [5–9]

Xorijiy tadqiqotlarda esa self-directed learning va self-regulated learning konsepsiyalari mustaqil ta'limning ilmiy-metodologik asosini tashkil qiladi. M.S.Knowles, P.C. Candy, D.R. Garrison tadqiqotlarida ta'lim oluvchining ta'lim ehtiyojlarini aniqlashi, maqsad belgilashi, resurs va strategiyalarni mustaqil tanlashi muhim deb qaraladi. B.J. Zimmerman va P.R. Pintrichning o'zini o'zi boshqarib o'rganish nazariyalarida esa rejalashtirish, faoliyatni bajarish, monitoring, o'zini nazorat qilish va refleksiya o'zaro bog'langan siklik jarayon sifatida tavsiflanadi. [10–14]

Mazkur yondashuvlarni umumlashtirish natijasida “mustaqil ta'lim”, “mustaqil ish” va “mustaqil o'quv faoliyati” tushunchalarini farqlash zarurligi aniqlanadi. Mustaqil ta'lim maqsad, mazmun, pedagogik sharoit, resurs, topshiriq, monitoring va natijalarni birlashtiruvchi yaxlit pedagogik tizim va jarayondir. Mustaqil ish ushbu tizim tarkibidagi aniq maqsad, muddat, bajarish sharti va baholanadigan natijaga ega tashkiliy-didaktik birlik hisoblanadi. Mustaqil o'quv faoliyati esa talabaning motivatsion, kognitiv, metakognitiv, amaliy va refleksiv harakatlari tizimini ifodalaydi. [5–14]



Shu sababli talabaning mustaqillik darajasini faqat topshiriqning auditoriyadan tashqarida yoki o'qituvchi ishtirokisiz bajarilishi bilan baholash metodologik jihatdan yetarli emas. Haqiqiy mustaqillik talabaning maqsad qo'yishi, strategiya tanlashi, resurslardan foydalanishi, o'z faoliyatini nazorat qilishi, natijani baholashi va keyingi faoliyatni korrektsiyalashdagi subyektlik darajasi bilan belgilanadi.

Raqamli transformatsiya mustaqil ta'limning mazmuni va boshqaruv mexanizmlariga yangi talablarni qo'ymoqda. Elektron ta'lim platformalari, mobil ilovalar, mediaresurslar, avtomatik baholash, o'quv analitikasi va sun'iy intellekt vositalari individual o'quv trayektoriyasini tashkil etish, o'zlashtirish dinamikasini monitoring qilish va tezkor qayta aloqa berish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, raqamli vositalarning mavjudligi mustaqil o'quv faoliyatining samaradorligini avtomatik ravishda ta'minlamaydi. Ularning funksiyalari aniq pedagogik maqsad, didaktik tamoyillar va metodik mexanizmlarga asoslanishi zarur. [18–21]

Tadqiqot natijalari raqamli muhitda mustaqil ta'limni pedagogik boshqarishning maqsadli-loyihalash, diagnostik, tashkiliy-muvofiqlashtiruvchi, monitoring-korreksion hamda refleksiv-prognostik funksiyalarini ajratish imkonini beradi. Bunda pedagogning vazifasi talaba faoliyatini to'liq nazorat qilish emas, balki uning individual imkoniyatlari va tayyorgarlik darajasiga mos pedagogik ko'mak yaratishdan iborat. Talabaning mustaqilligi ortib borgan sari tashqi pedagogik tayanchning bosqichma-bosqich kamayishi maqsadga muvofiqdir. [13–14; 18–21]

Adabiyotlarning mazmuniy-qiyosiy tahlili mustaqil ta'lim rivojlanishida bir qator barqaror tendensiyalar mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, reproduktiv faoliyatdan produktiv va ijodiy faoliyatga, o'qituvchi markazli boshqaruvdan talaba subyektligiga, standart topshiriqlardan individuallashtirilgan va adaptiv topshiriqlarga, yakuniy nazoratdan uzluksiz monitoring va formativ baholashga, bir tomonlama pedagogik ta'sirdan interaktiv qayta aloqaga hamda alohida elektron resurslardan integratsiyalashgan raqamli ta'lim muhitiga o'tish tendensiyasi kuzatilmoqda. [14; 18–21]

Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlarning aksariyatida mustaqil ta'limning alohida pedagogik, metodik yoki texnologik komponentlari o'rganilgan. Talabalarning mustaqil ta'limini rejalashtirish, topshiriqlarni individuallashtirish, bajarish jarayonini boshqarish, monitoring qilish, baholash, tezkor qayta aloqa berish, natijalarni tahlil qilish va pedagogik korrektsiyani yagona raqamli muhitda integratsiyalashning yaxlit pedagogik-metodik tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Shu asosda raqamli muhitda talabalarning mustaqil ta'limini pedagogik boshqarishni ta'lim maqsadi va diagnostik ma'lumotlar asosida individual o'quv trayektoriyasini loyihalash, topshiriqlar hamda resurslarni muvofiqlashtirish, faoliyat jarayonini monitoring qilish, adaptiv pedagogik ko'mak va tezkor qayta aloqani taqdim etish, natijalarni mezonli hamda refleksiv baholash orqali tashqi pedagogik boshqaruvdan ongli o'zini o'zi boshqarishga bosqichma-bosqich o'tishni ta'minlaydigan siklik pedagogik jarayon sifatida talqin qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari individuallashtirish, adaptivlik, raqamlashtirish, kompetensiyaviy yo'naltirilganlik, uzluksiz monitoring, tezkor qayta aloqa va refleksiv boshqaruvning o'zaro integratsiyasi bilan tavsiflanadi. Mustaqil ta'lim samaradorligi topshiriqlar soni yoki ular uchun ajratilgan vaqt hajmi bilan emas, balki talabaning o'z o'quv faoliyatini mustaqil rejalashtirish, boshqarish, natijalarni baholash va takomillashtirish kompetensiyasining rivojlanganligi bilan belgilanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishga mo'ljallangan dasturiy ta'minotni pedagogik maqsad, individual topshiriq, raqamli boshqaruv, monitoring, baholash, qayta aloqa, refleksiya va pedagogik korreksiya yagona didaktik siklda integratsiyalovchi vosita sifatida ishlab chiqish istiqbolli ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
1. Есипов Б.П. Самостоятельная работа учащихся на уроках. – Москва: Учпедгиз, 1961.



2. Пидкасистый П.И. Самостоятельная деятельность учащихся: дидактический анализ процесса и структуры воспроизведения и творчества. – Москва: Педагогика, 1972.
3. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – 2-е изд., доп., испр. и перераб. – Москва: Логос, 2004.
4. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Политиздат, 1975.
5. Хуторской А.В. Дидактическая эвристика: теория и технология креативного обучения. – Москва: Изд-во МГУ, 2003.
6. Knowles M.S. Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers. – New York: Association Press, 1975.
7. Candy P.C. Self-Direction for Lifelong Learning: A Comprehensive Guide to Theory and Practice. – San Francisco: Jossey-Bass, 1991.
8. Garrison D.R. Self-directed learning: Toward a comprehensive model // Adult Education Quarterly. – 1997. – Vol. 48, No. 1. – P. 18–33.
9. Zimmerman B.J. Becoming a self-regulated learner: An overview // Theory Into Practice. – 2002. – Vol. 41, No. 2. – P. 64–70.
10. Pintrich P.R. The role of goal orientation in self-regulated learning // Boekaerts M., Pintrich P.R., Zeidner M. (Eds.). Handbook of Self-Regulation. – San Diego: Academic Press, 2000. – P. 451–502.
11. Panadero E. A review of self-regulated learning: Six models and four directions for research // Frontiers in Psychology. – 2017. – Vol. 8. – Article 422. DOI: 10.3389/fpsyg.2017.00422.
12. Deci E.L., Ryan R.M. The “what” and “why” of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior // Psychological Inquiry. – 2000. – Vol. 11, No. 4. – P. 227–268.
13. Siemens G. Connectivism: A learning theory for the digital age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. – 2005. – Vol. 2, No. 1. – P. 3–10.
14. Devolder A., van Braak J., Tondeur J. Supporting self-regulated learning in computer-based learning environments: Systematic review of effects of scaffolding in the domain of science education // Journal of Computer Assisted Learning. – 2012. – Vol. 28, No. 6. – P. 557–573. DOI: 10.1111/j.1365-2729.2011.00476.x.
15. Zheng L. The effectiveness of self-regulated learning scaffolds on academic performance in computer-based learning environments: A meta-analysis // Asia Pacific Education Review. – 2016. – Vol. 17, No. 2. – P. 187–202. DOI: 10.1007/s12564-016-9426-9.
16. Guo L. Using metacognitive prompts to enhance self-regulated learning and learning outcomes: A meta-analysis of experimental studies in computer-based learning environments // Journal of Computer Assisted Learning. – 2022. DOI: 10.1111/jcal.12650.
17. Prasse D., Webb M., Deschênes M., Parent S., Aeschlimann F., Goda Y., Yamada M., et al. Challenges in promoting self-regulated learning in technology-supported learning environments: An umbrella review of systematic reviews and meta-analyses // Technology, Knowledge and Learning. – 2024. – Vol. 29. – P. 1809–1830.